



## XALQ DEPUTATLARI UCHEPEA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 15-yanvar

III-23-1-14-202-K/26

Uchtepa tumani

### **Uchtepa tumanida 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda “2026-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 1105-sonli Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda PF-6121-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha yer solig‘i stavkasiga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat‘iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorini kiritish va qo‘llash yuzasidan, xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda “2026-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 1105-sonli Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda PF-6121-sonli Farmonining 1-bandi 2-xat boshiga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun daha, massiv va mahalla kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish va qo‘llash tartibi joriy etilganligi, 2025-yil O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun

hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni loyihasi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va Prezidentning Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, Soliq kodeksiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni hisobga olib, tuman Soliq inspeksiyasining 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer maydonlari bo'yicha yer solig'i stavkasiga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar yuzasidan kiritilgan taklifi ma'qulansin.

**3.** O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 27-moddasi va Soliq kodeksiga asosan "2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer maydonlari bo'yicha yer solig'i stavkasiga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaror loyihasi jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun 111886-son bilan 15 kun muddatga "regulation.gov.uz" elektron tizimiga joylashtirilganligi inobatga olinsin.

**4.** Tuman xalq deputatlari Kengashlariga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer maydonlari bo'yicha mahallalar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig'i stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llagan holda yer solig'i stavkalari 1-ilovaga muvofiq;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq;

- noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga muvofiq.

**5.** Uchtepa tumani soliq inspeksiyasiga:

- ushbu qarorni sifatli darajada ijrosini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

- Uchtepa tumani soliq inspeksiyasi tomonidan byudjet daromadlari ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash, Soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rish ustidan qat'iy nazoratni o'rnatilishi uchun xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashiga doimiy ravishda ma'lumot kiritib borsin.

6. Uchtepa tumani hokimligi va tuman soliq inspeksiyasi, mazkur qarordan kelib chiqqan holda, yuridik va jismoniy shaxslarning yer soliqlari bo'yicha belgilangan stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

7. Mazkur qaror e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror ijrosi yuzasidan tuman soliq inspeksiyasi hamda jismoniy yoki yuridik shaxslar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'rnatilgan tartibda sud orqali hal qilinadi.

9. Xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi "Uchtepa tumanida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq stavkasiga qo'llanilgan koeffitsiyentni tasdiqlash to'g'risida"gi III-5-026-14-202-K/24-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Belgilab qo'yilsinki, berilgan taklif va tavsiyalarni inobatga olgan holda: Uchtepa tumani hokimining birinchi o'rinbosari, Uchtepa tumani soliq inspeksiyasi boshlig'i, tuman Kadastr bo'limi bilan birgalikda 2026-yil davomida 2027-yil 1-yanvargacha tumanda faoliyat olib borayotgan faoliyat turidan qat'iy nazar mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib borayotgan ko'cha yuzalarida joylashgan tadbirkorlik subyektlari (3 va 4-zonlar) da yer soliqlarini belgilash uchun o'rganishlar olib borilsin hamda o'rganishlar natijasi yuzasidan va Uchtepa tumani hokimining birinchi o'rinbosari boshchiligida tegishli bo'lgan mas'ul tashkilotlar ishtirokida muntazam ravishda tadbirkorlik subyektlari bilan uchrashuvlar tashkil qilish va tadbirkorlar tamonidan berilayotgan taklif va tavsiyalar xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasiga berilgan takliflarni muhokamalar uchun kiritib borsin.

11. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Uchtepa tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islodotlarni amalga oshirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (**J.Karimov**) va Uchtepa tumani hokimining birinchi o'rinbosari (**A.Azimov**) zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**ISMANOV  
JAFAR  
XODJIMURATOVICH**

Xalq deputatlari Uchtepa tumani  
Kengashining  
2026-yil 15-yanvardagi  
III-23-1-14-202-K/26 -son qaroriga  
1-ilova

**Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha tuman va shaharlar  
kesimida yer solig'i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar**

№	Mahalla nomi	Zona	Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i 1 gektar uchun (noturar obyektlar) so'mda		Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i 1 kv. metr uchun so'mda	
			Yer solig'i stavkasi (mln.so'm)	Koeffitsiyent	Yer solig'i stavkasi (mln.so'm)	Koeffitsiyent
1	Abdulla Qodiriy	3	185	1,5	1 208	1,15
2	Abdulla Qodiriy	4	125	1,4	950	1,2
3	Alixonto'ra Sog'uniy	5	65	1,3	680	1,25
4	Bekobod	2	240	1,6	1 473	1,1
5	Beshqayrag'och	3	185	1,5	1 208	1,15
6	Beshqayrag'och	4	125	1,4	950	1,2
7	Birlik	4	125	1,4	950	1,2
8	Bog'iston	4	125	1,4	950	1,2
9	Bog'iston	5	65	1,3	680	1,25
10	Bog'ichinor	3	185	1,5	1 208	1,15
11	Bog'ichinor	4	125	1,4	950	1,2
12	Bog'obod	4	125	1,4	950	1,2
13	Vatan	4	125	1,4	950	1,2
14	Vatan	5	65	1,3	680	1,25
15	Vatanparvar	4	125	1,4	950	1,2
16	Vatanparvar	5	65	1,3	680	1,25
17	Guzar	4	125	1,4	950	1,2
18	Davlatobod	3	185	1,5	1 208	1,15
19	Davlatobod	4	125	1,4	950	1,2
20	Degrez	3	185	1,5	1 208	1,15
21	Degrez	4	125	1,4	950	1,2
22	Diyorobod	5	65	1,3	680	1,25
23	Diydor	5	65	1,3	680	1,25
24	Jarbuloq	3	185	1,5	1 208	1,15
25	Jarbuloq	4	125	1,4	950	1,2
26	Jurjoniyy	4	125	1,4	950	1,2
27	Zarafshon	4	125	1,4	950	1,2
28	Zarafshon	5	65	1,3	680	1,25
29	Zargarlik	3	185	1,5	1 208	1,15
30	Zargarlik	4	125	1,4	950	1,2
31	Zulfizar	2	240	1,6	1 473	1,1

32	Zulfizar	4	125	1,4	950	1,2
33	Ibrat	3	185	1,5	1 208	1,15
34	Istiroxat	4	125	1,4	950	1,2
35	Katta Qa'ni	4	125	1,4	950	1,2
36	Katta Qa'ni	5	65	1,3	680	1,25
37	Katta Cho'ponota	4	125	1,4	950	1,2
38	Katta Cho'ponota	5	65	1,3	680	1,25
39	Ko'ksaroy	3	185	1,5	1 208	1,15
40	Ko'ksaroy	4	125	1,4	950	1,2
41	Ko'ksaroy	5	65	1,3	680	1,25
42	Ko'kcha Oqtepa	3	185	1,5	1 208	1,15
43	Ko'kcha Oqtepa	4	125	1,4	950	1,2
44	Ko'rkamobod	2	240	1,6	1 473	1,1
45	Ko'rkamobod	4	125	1,4	950	1,2
46	Ko'hna Cho'ponota	3	185	1,5	1 208	1,15
47	Ko'hna Cho'ponota	4	125	1,4	950	1,2
48	Qoziguzar	4	125	1,4	950	1,2
49	Qoryog'di	2	240	1,6	1 473	1,1
50	Quyidarxon	2	240	1,6	1 473	1,1
51	Quyidarxon	3	185	1,5	1 208	1,15
52	Quyidarxon	4	125	1,4	950	1,2
53	Qo'rg'ontepa	3	185	1,5	1 208	1,15
54	Qo'rg'ontepa	4	125	1,4	950	1,2
55	Latifguzar	4	125	1,4	950	1,2
56	Nayman	4	125	1,4	950	1,2
57	Nishabariq	3	185	1,5	1 208	1,15
58	Nishabariq	4	125	1,4	950	1,2
59	Nurobod	4	125	1,4	950	1,2
60	Nurobod	5	65	1,3	680	1,25
61	Oqmachit	4	125	1,4	950	1,2
62	Paxtakor	3	185	1,5	1 208	1,15
63	Paxtakor	4	125	1,4	950	1,2
64	Paxtakor	5	65	1,3	680	1,25
65	Taqachi	2	240	1,6	1 473	1,1
66	Taqachi	4	125	1,4	950	1,2
67	Tepaqo'rg'on	3	185	1,5	1 208	1,15
68	Tepaqo'rg'on	4	125	1,4	950	1,2
69	Tinchlikobod	4	125	1,4	950	1,2
70	O'rikzor	4	125	1,4	950	1,2
71	O'rikzor	5	65	1,3	680	1,25
72	O'tkir	2	240	1,6	1 473	1,1
73	O'tkir	4	125	1,4	950	1,2
74	Uchtepa	2	240	1,6	1 473	1,1
75	Uchtepa	4	125	1,4	950	1,2
76	Farpod	4	125	1,4	950	1,2
77	Foziltepa	4	125	1,4	950	1,2

78	Foziltepa	5	65	1,3	680	1,25
79	Xayratiy	4	125	1,4	950	1,2
80	Xojiobod	4	125	1,4	950	1,2
81	Xondamir	3	185	1,5	1 208	1,15
82	Xondamir	4	125	1,4	950	1,2
83	Xuroson	4	125	1,4	950	1,2
84	Xurshid	2	240	1,6	1 473	1,1
85	Xurshid	4	125	1,4	950	1,2
86	Hamdo'st	4	125	1,4	950	1,2
87	Hamdo'st	5	65	1,3	680	1,25
88	Chamanzor	2	240	1,6	1 473	1,1
89	Chamanzor	4	125	1,4	950	1,2
90	Sharq Guli	3	185	1,5	1 208	1,15
91	Sharq Guli	4	125	1,4	950	1,2
92	Sharq Yulduzi	3	185	1,5	1 208	1,15
93	Sharq Yulduzi	4	125	1,4	950	1,2
94	Shaftolizor	4	125	1,4	950	1,2
95	Shirin	4	125	1,4	950	1,2
96	Shirin	5	65	1,3	680	1,25
97	Shofayzibog'	3	185	1,5	1 208	1,15
98	Shofayzibog'	4	125	1,4	950	1,2
99	Shofayzibog'	5	65	1,3	680	1,25
100	Yusuf Sakkokiy	4	125	1,4	950	1,2
101	Yusuf Sakkokiy	5	65	1,3	680	1,25
102	Yangiyo'l	5	65	1,3	680	1,25

Xalq deputatlari Uchtepa tumani  
Kengashining  
2026-yil 15-yanvardagi  
III-23-1-14-202-K/26 -son qaroriga  
2-ilova

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan  
koeffitsiyentlar**

T/r	Sohalar	Yer usti suv manbalari		Yer osti suv manbalari	
		Koeffit-siyent	Soliq stavkasi (1 kub metr uchun)	Koeffit-siyent	Soliq stavkasi (1 kub metr uchun)
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1,3	973,7	1,1	1183,0
2	Sanoat korxonalar	1,3			
3	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalar	1,3	153,4	1,3	187,2
4	Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1,3	139,1	1,3	139,1
5	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	1,3	20 865	1,3	20 865
6	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	1,3	52 858	1,3	52 858

Xalq deputatlari Uchtepa tumani  
Kengashining  
2026-yil 15-yanvardagi  
III-23-1-14-202-K/26 -son qaroriga  
3-ilova

**Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy  
stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar**

T/r	Noruda qurilish materiallari nomi	Koeffitsiyent	Soliq stavkasi (1 kub metr uchun so'mda)
1	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfirritlar, diabaz-porfirritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat hom ashyosi, travertin	1,2	7 909,2
2	Qum-shag'al aralashmasi ( <i>qum-shag'alning karerdagi realizatsiya minimal miqdori bir metr kubi uchun 20 ming so'm</i> )	1,2	6 420,0
3	G'isht-cherepitsa hom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar	1,2	5 931,6
4	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	1,2	20 479,2
5	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,2	12 840,0
6	Marmar	1,2	25 680,0
7	Granitlar	1,2	38 520,0